



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
MINISTRY OF AGRICULTURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100140, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy, tel.: (998-71) 206-70-30, Ishonch tel:(998-71) 206-70-65, www.agro.uz, el. manzil:info@agro.uz, agro@exat.uz



2025-yil 25-dekabr
04/12-05/8191-son

O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligiga

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-apreldagi “Qonunchilik hujjatlarining tartibga solish ta’sirini baholash hamda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha kompleks rejalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 253-son qarori ijrosi yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish rejasiga asosan Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizasi natijalari ilovaga muvofiq yuborilmoqda.

Ilova: ___ varaqda.

Vazir o‘rinbosari



Q. Yuldashev

**Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash bo'yicha
Ch E K L I S T**

(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 21-sentabrdagi 752-son "Andijon viloyatida meva-sabzavotchilikni klaster usulida rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori)

Yo'nalishlar	Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	Javob				Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omil mavjud bo'lgan norma va uning asoslanishi
	so'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi	bor		yo'q	+	
	noaniq va asossiz havolalarning qo'llanilishi	bor		yo'q	+	
Normalarning barqarorligi va huquqiy jihatdan muvofiqligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	normativ-huquqiy hujjatlarda qarama-qarshiliklarning mavjudligi	bor	+	yo'q	-	<p>1. Omil: Qarorning 3-bandida Andijon viloyati hokimligi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda klasterlarning faoliyat yo'nalishini va ekiladigan ekin turlarini hisobga olgan holda ularga meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish uchun tuproq-iqlim sharoiti mos bo'lgan va suv bilan ta'minlangan ekin yerlari, bog' va uzumzorlarni belgilangan tartibda ajratilishini ta'minlashi belgilangan.</p> <p>Yer kodeksining 24-moddasiga asosan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari elektron onlayn-auksion natijalari asosida – jismoniy va yuridik shaxslarga ijara huquqi asosida beriladi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.06.2021 yildagi PF-6243-son Farmoni mahalliy davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlariga oid vakolatlari, ular yuzasidan qaror, farmoyish yoki boshqa turdagi hujjat qabul qilish huquqi 2021 yil 1 avgustdan bekor qilingan.</p> <p>Shuningdek, mazkur bandda qayd etilgan "O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi" negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.09.2020 yildagi PF-6061-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tashkil etilgan.</p>

						<p>Yechim: Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshini chiqarib tashlash va ushbu bandedagi “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi” degan so‘zlarni “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirish maqsadga muvofiq.</p> <p>2. Omil: Qarorning 9-bandida «O‘zagrotexsanoatxolding» aksiyadorlik jamiyati, «O‘zagrolizing» aksiyadorlik jamiyati bilan birgalikda klasterlarga meva-sabzavot ekinlarini ekish, parvarishlash va yig‘ib olish bilan bog‘liq agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish uchun talab etiladigan maxsus texnikalarni lizing asosida yetkazib berish chorasini ko‘rishi belgilangan.</p> <p>Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.07.2020 yildagi 430-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik), «O‘zavtosanoat» AJ va «O‘zagrotexsanoatxolding» AJning xo‘jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi «O‘zagrotexsanoatxolding» AJning ulushlarini (aksiyalarini), jamiyat ustav kapitalini beriladigan ulushlar (aksiyalar) balans qiymatiga kamaytirgan holda Agentlikka berilgan.</p> <p>Yechim: Qarorning 9-bandidan “«O‘zagrotexsanoatxolding» aksiyadorlik jamiyati” degan so‘zlarni chiqarib tashlash kerak.</p>
<p>Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar</p>	diskresion vakolatlarining kengligi	bor		yo‘q	+	
	vakolatlarining noaniqligi	bor		yo‘q	+	
	davlat organlarining bir-birini takrorlovchi vakolatlari va vazifalari mavjudligi	bor		yo‘q	+	
	davlat organi tomonidan o‘z vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi	bor		yo‘q	+	

	vazifani yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida zarur bo'lgan vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi	bor		yo'q	+	
	o'z vaqtida tartibga solinmaslik	bor		yo'q	+	
	manfaatlar to'qnashuvi	bor		yo'q	+	
	afzalliklarning asossiz ravishda belgilanishi	bor		yo'q	+	
	normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish	bor		yo'q	+	
	huquq va majburiyatlarning nomutanosibligi	bor		yo'q	+	
Ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi	bor		yo'q	+	
	belgilangan qoidalardagi istisnolarning asossiz ravishda qo'llanilishi	bor		yo'q	+	
	ortiqcha va asossiz talablar belgilanishi	bor		yo'q	+	
	vaqt chegaralarining noaniqligi	bor		yo'q	+	
	to'lovlar miqdorlarining noaniqligi	bor		yo'q	+	
	sanksiyalarning nomutanosibligi	bor		yo'q	+	
	davlat organlari va tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hamda budjetdan tashqari mablag'lar sarflanishining aniq va shaffof tartib-taomillari mavjud emasligi	bor		yo'q	+	
	solliqlar va yig'imlarni hisoblash hamda undirish tartib-	bor		yo'q	+	

	taomillarining murakkabligi yoki noaniqligi				
	davlat korxonalarini hamda o'z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha aniq va shaffof tartib-taomillarning mavjud emasligi	bor		yo'q	+
	huquq va imtiyozlar beruvchi hamda ma'muriy tartib-taomillarni belgilaydigan tanlov (auksion) tartib-taomillaridan bo'yin tovlash imkoniyatini beruvchi normalarning mavjudligi	bor		yo'q	+
	tadbirlarni amalga oshirish usullarining murakkabligi va ularni moliyalashtirish manbalarining noaniqligi	bor		yo'q	+
Nazorat-tekshirish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	tekshirish va taftish o'tkazish tartibining mavjud emasligi	bor		yo'q	+
	shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi	bor		yo'q	+
	shaffoflikni va jamoatchilik nazoratini ta'minlashdagi bo'shliqlar	bor		yo'q	+
	moliyaviy va boshqa sanksiyalarni qo'llash hamda undirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarda aniq va shaffof tartib-taomillarning mavjud emasligi	bor		yo'q	+

	davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilish shakllari va turlarining mavjud emasligi	bor		yo'q	+	
--	--	-----	--	------	---	--

**Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash bo'yicha
Ch E K L I S T**

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyuldagi "Respublikada mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5178-son qarori)

Yo'nalishlar	Mezonlar (korrupsiyaviy omillar)	Javoblar				Korrupsiyaviy omil mavjud norma va uning asosi
	So'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi	bor	-	yo'q	+	
	Noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi	bor	-	yo'q	+	
Normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	Normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida ziddiyatlarning mavjudligi	bor	+	yo'q	-	<p>1. Omil: Qarorning:</p> <p>a) 6-bandida Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasining doimiy egaligidagi yaylovlar hududida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan dorivor o'simliklarni, shu jumladan kavrak o'simligini yig'ish, ekish va yetishtirish Qo'mita bilan tuzilgan ijara shartnomalari asosida va unda belgilangan hududlarda amalga oshirilishi;</p> <p>b) 7-bandi "a" kichik bandida Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasiga:</p> <p>junni qayta ishlash sanoatida raqobatni rivojlantirish, jun yetishtirish va uni qayta ishlash yo'nalishidagi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash;</p> <p>junni qayta ishlashga hunarmandlarni keng jalb qilish orqali aholi bandligini ta'minlashga va ularning daromadini oshirishga ko'maklashish;</p> <p>xorijiy investitsiyalar, jumladan xalqaro moliya institutlarining mablag'larini jalb qilish yo'li bilan sohani rivojlantirish vazifalari;</p> <p>d) 8-bandida 2022-yil 1-yanvardan boshlab:</p> <p>qorako'lchilik xo'jaliklariga ular tomonidan yetishtirilib, eksportga sotilgan har bir dona qorako'l va qorako'lcha terilari uchun; yetishtiriladigan pilla (ho'l pilla) hosilining bir kilogrammi uchun Davlat budjeti hisobidan ajratiladigan subsidiya Qo'mita tomonidan beriladi.</p> <p>Moliya vazirligi 2022-yildan boshlab budget parametrlarini shakllantirishda tegishli mablag'larning Qo'mitaga ajratib borilishini ta'minlashi belgilangan.</p>

Muammo: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025 yildagi PF-15-son Farmoni bilan Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda — Ipakchilik qo‘mitasi) tugatilgan hamda Ipakchilik qo‘mitasining:

yaylovlarni boshqarishga oid vazifa va funksiyalari — Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasiga;

pilla yetishtirish va ipakchilik sohasini rivojlantirishga oid vazifa va funksiyalari — Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi hamda “O‘zbekipaksanoat” uyushmasiga o‘tkazilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2025-yildagi PF-174-son Farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tashkil etildi hamda Agentlik to‘qimachilik, charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik sanoati (yengil sanoat) sohaslarida ustuvor yo‘nalishlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat organi etib belgilandi.

Yechim: Yuqoridagilardan kelib chiqib, Qarorning 6-bandi, 7-bandi “a” kichik bandi hamda 8-bandini Qarordan chiqarib tashlash yoki yuqoridagi farmonlarga muvofiqlashtirish lozim.

2. Omil: Qarorning 11-bandida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Ipakchilik qo‘mitasining asoslangan hisob-kitoblariga muvofiq, har yili 1-oktabrga qadar keyingi yil uchun qo‘l mehnati uchun uskunalar xarid qilish bo‘yicha xarajatlarni qoplashga beriladigan subsidiyalar miqdorini shakllantirishi va belgilangan tartibda ajratib borilishini ta’minlashi qayd etilgan.

Muammo: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025 yildagi PF-15-son Farmoni bilan Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi tugatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 yanvardagi PF-14-son Farmoniga asosan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga o‘zgartirilgan.

Yechim: Yuqoridagilardan kelib chiqib, Qarorning 11-bandidagi “Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” so‘zlarini “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” so‘zlari bilan almashtirish hamda “Ipakchilik qo‘mitasi” so‘zlarini Qarordan chiqarib tashlash lozim.

Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	Diskresion vakolatlar kengligi	bor	-	yo'q	+	
	Aniq belgilanmagan vakolatlar	bor	-	yo'q	+	
	Davlat organi tomonidan uning vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi	bor	-	yo'q	+	
	Vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida yetarli vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi	bor	-	yo'q	+	
	Kechiktirib tartibga solish	bor	-	yo'q	+	
	Manfaatlar to'qnashuvi	bor	-	yo'q	+	
	Davlat organlarining takrorlovchi vakolatlari va vazifalarining mavjudligi	bor	-	yo'q	+	
	Afzalliklarning asossiz belgilanishi	bor	-	yo'q	+	
	Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda qoldirish	bor	-	yo'q	+	
	Huquq va majburiyatlar o'rtasidagi nomutanosibliklar	bor	-	yo'q	+	
Ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	Ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi	bor	-	yo'q	+	
	Belgilangan qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz belgilanishi	bor	-	yo'q	+	
	Vaqt chegaralarining aniq belgilanmaganligi	bor	-	yo'q	+	
	To'lov miqdorlari aniq belgilanmaganligi	bor	-	yo'q	+	
	Ortiqcha va asossiz talablarning o'rnatilganligi	bor	-	yo'q	+	
	Sanksiyalarning nomutanosibligi	bor	-	yo'q	+	
	Chora-tadbirlarni amalga oshirishning moliyalashtirish manbalari noaniqligi	bor	-	yo'q	+	
Shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi	bor	-	yo'q	+		

Nazorat bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta'minlashdagi bo'shliqlar	bor	-	yo'q	+	
	Davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlari belgilanmaganligi	bor	-	yo'q	+	

**Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash bo'yicha
Ch E K L I S T**

(Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 709-son qarori)

Yo'nalishlar	Mezonlar (korrupsiyaviy omillar)	Javoblar				Korrupsiyaviy omil mavjud norma va uning asosi
Normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	So'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi	bor	-	yo'q	+	
	Noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi	bor	-	yo'q	+	
	Normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida ziddiyatlarning mavjudligi	bor	-	yo'q	+	
Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	Diskresion vakolatlar kengligi	bor	-	yo'q	+	
	Aniq belgilanmagan vakolatlar	bor	-	yo'q	+	
	Davlat organi tomonidan uning vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi	bor	-	yo'q	+	
	Vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida yetarli vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi	bor	-	yo'q	+	
	Kechiktirib tartibga solish	bor	-	yo'q	+	
	Manfaatlar to'qnashuvi	bor	-	yo'q	+	
	Davlat organlarining takrorlovchi vakolatlari va vazifalarining mavjudligi	bor	-	yo'q	+	
	Afzalliklarning asossiz belgilanishi	bor	-	yo'q	+	
	Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda qoldirish	bor	-	yo'q	+	
	Huquq va majburiyatlar o'rtasidagi nomutanosibliklar	bor	-	yo'q	+	
	Ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi	bor	-	yo'q	+	

Ma'muriy tartib- taomillar bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	Belgilangan qoidalaridan chiquvchi istisnolarni asossiz belgilanishi	bor	-	yo'q	+	
	Vaqt chegaralarining aniq belgilanmaganligi	bor	-	yo'q	+	
	To'lov miqdorlari aniq belgilanmaganligi	bor	-	yo'q	+	
	Ortiqcha va asossiz talablarning o'rnatilganligi	bor	-	yo'q	+	
	Sanksiyalarning nomutanosibligi	bor	-	yo'q	+	
	Chora-tadbirlarni amalga oshirishning moliyalashtirish manbalari noaniqligi	bor	-	yo'q	+	
Nazorat bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar	Shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi	bor	-	yo'q	+	
	Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta'minlashdagi bo'shliqlar	bor	-	yo'q	+	
	Davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlari belgilanmaganligi	bor	-	yo'q	+	